



**Dilfuza INAMOVA,**  
*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi*  
E-mail: [dilfuzainamova73@gmail.com](mailto:dilfuzainamova73@gmail.com)

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti X.Bakirova taqrizi asosida*

### TRANZITIVLIK VA TERMINATIVLIK MA'NOLARINING FE'L KOMBINATORIKASIGA MUNOSABATINING KONTEKSTDA VOQEALANISHI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)

Annotsatsiya

Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida fe'llarning tranzitivlik va terminativlik xususiyatlari hamda ularning kombinatorik imkoniyatlari kontekst doirasida tahlil qilinadi. Tadqiqotda fe'lning sintaktik va semantik xususiyatlari, obyekt bilan munosabati hamda harakatning yakunlanganlik darajasi nutq jarayonida qanday voqealanishi ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik va tarjima amaliyoti uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** Tranzitivlik, terminativlik, fe'l kombinatorikasi, kontekst, aspekt, ingliz tili, o'zbek tili.

### TRANSITIVITY AND TERMINATIVITY IN VERB COMBINATORICS AND THEIR CONTEXTUAL REALIZATION (BASED ON ENGLISH AND UZBEK)

Annotation

This article analyzes the transitivity and terminativity features of verbs in English and Uzbek, as well as their combinatorial possibilities within contextual frameworks. The study examines how the syntactic and semantic properties of verbs, their relationship with objects, and the degree of action completion are realized in speech. The research findings are of significant theoretical and practical importance for comparative linguistics and translation studies.

**Key words:** Transitivity, terminativity, verb combinatorics, context, aspect, English language, Uzbek language.

### ТРАНЗИТИВНОСТЬ И ТЕРМИНАТИВНОСТЬ В ГЛАГОЛЬНОЙ КОМБИНАТОРИКЕ И ИХ КОНТЕКСТУАЛЬНАЯ РЕАЛИЗАЦИЯ (НА ПРИМЕРЕ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)

Аннотация

В статье анализируются особенности транзитивности и терминативности глаголов в английском и узбекском языках, а также их комбинаторные возможности в контексте. Рассматривается реализация синтаксических и семантических свойств глагола, его связь с объектом и степень завершенности действия в речевом процессе. Результаты исследования имеют важное теоретическое и практическое значение для сравнительного языкознания и переводоведения.

**Ключевые слова:** Транзитивность, терминативность, глагольная комбинаторика, контекст, аспект, английский язык, узбекский язык.

**Kirish.** Zamonaviy tilshunoslikda fe'l semantikasi va uning sintaktik xususiyatlarini o'rganish muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Fe'l nutq jarayonida harakat, holat va jarayonlarni ifodalovchi asosiy leksik birlik sifatida tilning kommunikativ imkoniyatlarini belgilashda yetakchi o'rin tutadi. Shu sababli fe'lning grammatik, semantik va pragmatik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish til tizimining umumiy mexanizmlarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, fe'llarning tranzitivlik va terminativlik kategoriyalari ularning nutqda qanday ishlatilishini, obyekt bilan qanday munosabatga kirishishini hamda harakatning yakunlanganlik darajasini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Tranzitivlik fe'lning to'g'ridan-to'g'ri obyekt talab qilishi bilan bog'liq bo'lib, gapning sintaktik tuzilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Terminativlik esa harakatning ma'lum yakun nuqtasiga ega yoki ega emasligini ifodalab, fe'lning aspektual xususiyatlari bilan uzviy bog'liqdir (Comrie, 1976).

Mazkur ikki kategoriya fe'lning boshqa so'z birliklari bilan birikish imkoniyatlarini, ya'ni uning kombinatorik xususiyatlarini belgilaydi. Fe'lning qaysi otlar, ravishlar yoki yordamchi fe'llar bilan birika olishi ko'p jihatdan uning tranzitiv va terminativ xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Shu jihatdan, fe'l kombinatorikasi tilning leksik va grammatik tizimi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ochib beruvchi muhim omil hisoblanadi.

Dixon (1994) ta'kidlaganidek, "tranzitivlik faqat grammatik hodisa emas, balki semantik va pragmatik omillar bilan ham chambarchas bog'liqdir". Haqiqatan ham, fe'lning tranzitiv yoki intransitiv bo'lishi faqat uning formal tuzilishiga emas, balki nutq vaziyati, kommunikativ maqsad va kontekst bilan ham belgilanadi. Shu sababli fe'lning kombinatorik imkoniyatlari faqat sintaktik struktura doirasida emas, balki real nutq muhitida, kontekst asosida tahlil qilinishi zarur.

Terminativlik ham ko'pincha faqat grammatik vositalar orqali emas, balki kontekstual omillar orqali aniqlanadi. Bir xil fe'l turli vaziyatlarda yakunlangan yoki yakunlanmagan harakatni ifodalashi mumkin. Bu holat fe'l semantikasining dinamik xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi va uning nutq jarayonida turlicha voqealanishini tasdiqlaydi.

O'zbek va ingliz tillarida tranzitivlik va terminativlik kategoriyalarining qiyosiy o'rganilishi tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu tillar tipologik jihatdan turli guruhlariga mansub bo'lib, ularda fe'lning grammatik va semantik tizimi ham turlicha shakllangan. Shuning uchun ularni qiyosiy tahlil qilish umumiy va xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, mazkur masala tarjima jarayonida yuzaga keladigan semantik siljishlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi (Baker, 2011).

Tarjima amaliyotida fe'lning terminativlik darajasini noto'g'ri talqin qilish mazmunning buzilishiga olib kelishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi ayrim natijaviy fe'llarning

o'zbek tilida mos ekvivalent bilan ifodalanmasligi semantik yo'qotishlarga sabab bo'ladi. Shu bois, tranzitivlik va terminativlik masalasini chuqur o'rganish tarjima sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi ingliz va o'zbek tillarida fe'llarning tranzitivlik va terminativlik xususiyatlari kontekstda qanday voqealanishini aniqlash hamda ularning kombinatorik imkoniyatlarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot doirasida fe'llarning sintaktik tuzilishi, semantik mazmuni va pragmatik vazifalari o'zaro bog'liq holda o'rganiladi. Mazkur maqolada olingan natijalar qiyosiy tilshunoslik, tarjima nazariyasi va chet tillarini o'qitish metodikasi uchun nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

**Metodologiya.** Mazkur tadqiqotda fe'llarning tranzitivlik va terminativlik xususiyatlarini har tomonlama o'rganish maqsadida kompleks ilmiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologik jihatdan qiyosiy-tipologik, kontekstual va komponent tahlil usullariga asoslandi. Ushbu metodlar fe'l birliklarining grammatik, semantik va pragmatik xususiyatlarini tizimli ravishda aniqlash imkonini berdi.

Qiyosiy-tipologik metod yordamida ingliz va o'zbek tillaridagi fe'llarning tranzitivlik va terminativlik xususiyatlari o'zaro taqqoslandi. Ushbu metod ikki til o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlashga xizmat qildi hamda tipologik xulosalar chiqarish imkonini berdi. Ayniqsa, fe'llarning obyekt bilan munosabati, gapdagi sintaktik o'rni va aspektual xususiyatlari qiyosiy asosda tahlil qilindi.

Kontekstual tahlil metodi fe'llarning real nutq jarayonida qanday voqealanishini aniqlashda asosiy vosita bo'lib xizmat qildi. Bu metod yordamida fe'l birliklarining ma'nosi va funksiyasi faqat izolyatsiyada emas, balki muayyan matn muhiti doirasida o'rganildi. Har bir fe'lning terminativ yoki aterminativ xususiyati uning atrofidagi leksik birliklar, vaqt ko'rsatkichlari va kommunikativ vaziyat bilan bog'liq holda tahlil qilindi.

Komponent tahlil metodi esa fe'l ma'nosining ichki semantik tarkibini aniqlashga yo'naltirildi. Ushbu metod yordamida fe'llarning semantik komponentlari, ya'ni harakat turi, davomiyligi, natijaviyligi va obyektga yo'naltirilganlik kabi unsurlar ajratib ko'rsatildi. Natijada fe'l ma'nosining tranzitivlik va terminativlik bilan bog'liq jihatlari aniqlandi.

Tadqiqot materiali sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi turli janrdagi yozma manbalar tanlab olindi. Jumladan, ingliz tilidagi badiiy va publitsistik matnlar, zamonaviy o'zbek adabiy asarlari hamda ommaviy axborot vositalari materiallari tahlil uchun asos bo'lib xizmat qildi. Ushbu manbalar fe'llarning badiiy nutq muhitida qo'llanilishini kuzatish imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida har bir tildan 200 dan ortiq fe'l birliklari saralab olindi. Ushbu fe'llar quyidagi mezonlar asosida tahlil qilindi: obyekt bilan munosabati, aspektual xususiyati, terminativlik darajasi hamda kontekstga moslashuv imkoniyatlari. Har bir fe'lning turli nutq vaziyatlaridagi qo'llanilishi alohida misollar asosida o'rganildi.

Tahlil jarayonida statistik kuzatuv elementlaridan ham foydalanildi. Jumladan, ayrim fe'llarning terminativ yoki aterminativ qo'llanish chastotasi aniqlanib, ular o'zaro solishtirildi. Bu esa tadqiqot natijalarining ishonchligini oshirishga xizmat qildi.

Metodologik asos sifatida Comrie (1976) ning aspekt nazariyasi, Vendler (1967) ning fe'llar klassifikatsiyasi hamda Dixon (1994) ning tranzitivlik haqidagi qarashlari qabul qilindi. Ushbu olimlarning ilmiy ishlari tadqiqotning nazariy poydevorini tashkil etib, fe'l semantikasi va sintaktik xususiyatlarini izchil tahlil qilishga imkon berdi.

Mazkur metodologik yondashuv fe'llarning tranzitivlik va terminativlik xususiyatlarini faqat formal grammatik nuqtai nazardan emas, balki semantik va pragmatik

jihatdan ham yoritishga xizmat qildi. Natijada tadqiqot mavzusining kompleks va tizimli tahlil amalga oshirildi.

**Natijalar.** O'tkazilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz va o'zbek tillarida tranzitivlik va terminativlik kategoriyalari fe'l kombinatorikasiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Har ikki tilda ham fe'lning obyekt bilan munosabati va aspektual xususiyatlari uning nutqdagi funksional imkoniyatlarini belgilaydi. Biroq ushbu kategoriyalarning ifodalanish vositalari va kontekstda voqealanish mexanizmlari o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ingliz tilida tranzitivlik va terminativlik asosan grammatik shakllar, zamon-aspekt tizimi hamda leksik vositalar orqali ifodalansa, o'zbek tilida bu jarayon ko'proq analitik konstruksiyalar, affiksalar va yordamchi fe'llar orqali amalga oshiriladi.

Ingliz tilida tranzitivlik va terminativlikning namoyon bo'lishi

Ingliz tilida tranzitiv fe'llar ko'pincha terminativlik xususiyati bilan birgalikda qo'llanadi. Obyektning aniq ifodalanishi harakatning yakunlanganligini bildiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Masalan: He wrote the letter. (U xatni yozdi.) Mazkur misolda write fe'li aniq obyekt (the letter) bilan birikib, harakatning to'liq bajarilganligini ifodalaydi. Bunday hollarda fe'l natijaviy xarakterga ega bo'lib, terminativlik aniq namoyon bo'ladi.

Biroq tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz tilida tranzitiv fe'llar doimo terminativ ma'noni ifodalamaydi. Ayrim vaziyatlarda ular jarayonning davomiylikni bildiradi va harakatning yakunlanishi noaniq bo'lib qoladi. Masalan: He was reading a book. Ushbu gapda read fe'li obyekt bilan qo'llangan bo'lsa-da, was reading shakli harakatning davom etayotganligini bildiradi. Natijada terminativlik darajasi pasayadi va fe'l aterminativ xarakter kasb etadi.

Shuningdek, ingliz tilida vaqt ko'rsatkichlari va predlogli konstruksiyalar ham terminativlikni aniqlashda muhim rol o'ynaydi. In two hours, for two hours, by evening kabi birliklar fe'lning natijaviy yoki jarayoniy xarakterini belgilab beradi.

O'zbek tilida tranzitivlik va terminativlikning ifodalanishi

O'zbek tilida terminativlik asosan morfologik va analitik vositalar orqali ifodalanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yordamchi fe'llar, affiksalar va fe'l birikmalari harakatning yakunlanganligini ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi. Masalan: U kitobni o'qib chiqdi. Bu misolda chiq-yordamchi fe'li harakatning to'liq bajarilganligini va natijaga erishilganligini bildiradi. Shu orqali fe'l terminativ xarakter kasb etadi.

Bundan tashqari, bo'l-, qo'y-, ol-, tashla- kabi yordamchi fe'llar ham terminativlikni kuchaytiruvchi vositalar sifatida faol qo'llanadi. Masalan: yozib bo'ldi, aytib qo'ydi, olib tashladi.

Tadqiqot natijalari obyektning aniqligi ham terminativlik darajasiga ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Quyidagi misollar bunga dalil bo'la oladi: U kitob o'qidi. U kitobni o'qidi. Birinchi gapda obyekt noaniq bo'lgani sababli harakatning yakunlanganligi to'liq ifodalanmagan. Ikkinchi gapda esa tushum kelishigidagi obyekt (kitobni) fe'lning terminativ xarakterini kuchaytiradi va natijaviylikni oshiradi. Shu tariqa, o'zbek tilida tranzitivlik va terminativlik o'zaro chambarchas bog'liq holda, morfologik va sintaktik vositalar orqali namoyon bo'ladi.

Kontekstning terminativlikni belgilashdagi roli

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, terminativlik ko'pincha faqat fe'l shakliga bog'liq bo'lmay, balki kontekst orqali aniqlanadi. Bir xil fe'l turli nutq vaziyatlarida turlicha terminativlik darajasiga ega bo'lishi mumkin. Masalan: He painted the house for two days. He painted the house in two days. Birinchi gapda for two days birikmasi harakatning

davomiyligini bildiradi va jarayonning tugallanganligi aniq ko'rsatilmaydi. Ikkinchi gapda esa in two days birikmasi harakatning ma'lum vaqt ichida yakunlanganligini ifodalaydi. Natijada fe'l terminativ xarakter kasb etadi.

Xuddi shunga o'xshash holat o'zbek tilida ham kuzatildi: U ikki kun uy bo'yadi. U ikki kunda uyni bo'yab tugatdi. Ikkinchi gapda kontekst va yordamchi fe'l orqali terminativlik aniq ifodalangan. Shu asosda aytish mumkinki, kontekst fe'lining tranzitivlik va terminativlik xususiyatlarini faollashtiruvchi asosiy omillardan biridir. Nutq vaziyati, vaqt chegarasi, obyektning aniqligi va kommunikativ maqsad fe'lining semantik mazmunini belgilashda muhim rol o'ynaydi.

**Muhokama.** O'tkazilgan tadqiqot natijalari mavjud lingvistik nazariyalar bilan uyg'un holda ekanligini ko'rsatdi. Xususan, olingan xulosalar Vendler (1967) tomonidan ishlab chiqilgan fe'llar klassifikatsiyasi bilan mos keladi. Ushbu tasnifga ko'ra, harakat fe'llari (activities) asosan davomiy jarayonni ifodalab, ko'pincha aterminativ xarakterga ega bo'ladi, natijaviy fe'llar (accomplishments) esa ma'lum yakun nuqtasiga ega bo'lib, terminativlik bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot jarayonida ingliz tilidagi run, read, work, write kabi fe'llarning kontekstga bog'liq holda turlicha terminativlik darajasiga ega bo'lishi kuzatildi. Masalan, read a book birikmasi ayrim vaziyatlarda jarayonni, ayrim hollarda esa yakunlangan harakatni bildirishi mumkin. Bu holat fe'l semantikasining moslashuvchanligini va kontekst bilan chambarchas bog'liqligini tasdiqlaydi.

O'zbek tilida esa fe'llarning terminativlik xususiyatlari ko'pincha analitik konstruksiyalar yordamida aniqlanadi. O'qib chiqdi, yozib bo'ldi, aytib qo'ydi, olib tashladi kabi birikmalar harakatning natijaviyligini kuchaytiradi. Bu jihatdan o'zbek tilida terminativlikning ifodalanish tizimi ingliz tiliga nisbatan boyroq va xilma-xildir. Natijada, bir xil semantik mazmun turli grammatik shakllar orqali ifodalanadi.

Mazkur farq tarjima jarayonida muhim muammolarni yuzaga keltiradi. Ingliz tilidagi terminativlik ko'pincha alohida leksik birliklar orqali ifodalansa, o'zbek tilida u yordamchi fe'llar yoki affiksalar yordamida beriladi. Masalan: He finished reading the book. U kitobni o'qib bo'ldi. Bu misolda ingliz tilidagi finish fe'li harakatning yakunlanganligini mustaqil leksik birlik sifatida ifodalasa, o'zbek tilida mazkur ma'no yordamchi fe'l orqali beriladi. Bunday transformatsiyalar tarjimonning grammatik va semantik kompetensiyasini talab qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tarjima jarayonida terminativlikning noto'g'ri talqin qilinishi mazmunning buzilishiga olib kelishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi davomiy shaklning o'zbek tiliga terminativ shaklda tarjima qilinishi yoki aksincha, matnning pragmatik ma'nosini o'zgartirib yuboradi. Shu sababli tarjimada fe'lining aspektual va terminativ xususiyatlarini to'g'ri aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Baker (2011) fikricha, "aspektual farqlar tarjimada eng ko'p yo'qotiladigan semantik komponentlardan biridir". Mazkur tadqiqot natijalari ushbu fikrni tasdiqlaydi. Chunki ingliz va o'zbek tillaridagi aspektual tizimlarning farqlanishi fe'l ma'nosining to'liq ekvivalentini topishni murakkablashtiradi.

Bundan tashqari, o'rganilgan materiallar shuni ko'rsatdiki, fe'lining tranzitivlik darajasi ham terminativlik bilan bevosita bog'liqdir. Obyektning aniqligi, uning sintaktik o'rni va semantik xususiyatlari harakatning yakunlanganlik darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, o'zbek tilida tushum kelishidagi obyekt terminativlikni kuchaytiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Muhokama natijalariga ko'ra, tranzitivlik va terminativlikni alohida-alohida kategoriyalar sifatida emas,

balki o'zaro bog'liq va dinamik tizim sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. Ular nutq jarayonida kontekst, kommunikativ vaziyat va maqsadga bog'liq holda faollashadi yoki susayadi.

Shuningdek, mazkur tadqiqot natijalari chet tillarini o'qitish metodikasi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Talabalarga fe'llarning terminativlik va tranzitivlik xususiyatlarini faqat grammatik qoida sifatida emas, balki real nutq kontekstida tushuntirish til kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot ingliz va o'zbek tillarida fe'l semantikasi va kombinatorikasining murakkab tabiatini ochib beradi hamda mavjud nazariy qarashlarni empirik materiallar asosida boyitadi.

**Xulosa.** Mazkur tadqiqot ingliz va o'zbek tillarida fe'llarning tranzitivlik va terminativlik xususiyatlari ularning kombinatorik imkoniyatlari hamda kontekstual voqealanishi bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari fe'lining obyekt bilan munosabati, aspektual xususiyatlari va nutq vaziyatiga moslashuvi uning semantik mazmunini belgilashda muhim rol o'ynashini tasdiqladi.

Tahlil natijalariga ko'ra, ingliz tilida terminativlik asosan grammatik shakllar, zamon-aspekt tizimi va leksik birliklar orqali ifodalansa, o'zbek tilida bu hodisa ko'proq analitik konstruksiyalar, yordamchi fe'llar va morfologik vositalar yordamida amalga oshiriladi. Ushbu farq har ikki tilning tipologik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, fe'l tizimining o'ziga xosligini namoyon etadi.

Shuningdek, tadqiqot fe'lining tranzitivlik darajasi terminativlik bilan bevosita aloqador ekanligini ko'rsatdi. Obyektning aniqligi, uning sintaktik holati va semantik xususiyatlari harakatning yakunlanganlik darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, o'zbek tilida tushum kelishidagi obyekt terminativlikni kuchaytiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot davomida kontekstning fe'l semantikasini shakllantirishdagi roli alohida ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Bir xil fe'l turli nutq vaziyatlarida turlicha terminativ yoki aterminativ ma'noga ega bo'lishi mumkin. Bu holat fe'l semantikasining dinamik va moslashuvchan xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi.

Olingan natijalar tarjima amaliyoti uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ingliz va o'zbek tillarida terminativlikning turlicha ifodalanishi tarjima jarayonida grammatik va semantik transformatsiyalarni talab qiladi. Fe'ning aspektual va terminativ xususiyatlarini noto'g'ri talqin qilish mazmuniy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli tarjimon fe'l semantikasini chuqur bilishi va kontekstni to'g'ri tahlil qilishi zarur.

Bundan tashqari, mazkur tadqiqot natijalari chet tillarini o'qitish metodikasi uchun ham amaliy ahamiyatga ega. Fe'llarning tranzitivlik va terminativlik xususiyatlarini kontekst asosida tushuntirish talabalarning nutq kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi hamda ularning til birliklaridan ongli foydalanish ko'nikmasini shakllantiradi.

Umuman olganda, tadqiqot ingliz va o'zbek tillarida fe'l kombinatorikasi, tranzitivlik va terminativlik kategoriyalarining murakkab va ko'p qirrali tabiatini ochib berdi. Ushbu kategoriyalarni alohida hodisa sifatida emas, balki o'zaro bog'liq va dinamik tizim sifatida o'rganish zarurligi asoslandi.

Kelgusida mazkur mavzuni korpus lingvistikasi, eksperimental tilshunoslik va statistik tahlil metodlari asosida yanada chuqurroq tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. Bu fe'l semantikasining universalligi va milliy xususiyatlarini yanada aniqroq ochib berishga xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR**

1. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. London: Routledge, 2011. 332 p.
2. Comrie B. Aspect. Cambridge: Cambridge University Press, 1976. 142 p.
3. Dixon R. M. W. Ergativity. Cambridge: Cambridge University Press, 1994. 271 p.
4. Vendler Z. Linguistics in Philosophy. Ithaca: Cornell University Press, 1967. 203 p.
5. Karimov B. O'zbek tilida fe'l aspektual tizimi. Toshkent: Fan, 2018. 185 b.